



2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 13 (1612), 2026-yil 21-yanvar, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



SPORTDA YAXLIT TIZIM YARATILGANI O‘ZINING AMALIY NATIJASINI BERMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-yanvar kuni sport sohasida 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar, yirik musobaqalar natijalari hamda 2026-yil uchun mo‘ljallangan vazifalar yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Qayd etilganidek, sportda yaxlit tizim yaratilgani o‘zining amaliy natijalarini bera boshladi.

Aholining ommaviy sport bilan qamrovi 15 million nafarga yetdi, sport bilan doimiy shug‘ullanuvchilarning soni so‘nggi yillarda qariyb 1,5 barobarga oshdi.

O‘tgan yili yoshlarimiz jahon universiadasiida 13-o‘rin, Bahrayndagi Osiyo yoshlar o‘yinlari va Saudiya Arabistonidagi Islom birdamligi musobaqasida 2-o‘rin, BAA’dagi Yoshlar Paraosiyo o‘yinlarida 1-o‘rinni egalladi.

Futbol bo‘yicha milliy terma jamoamiz ilk bor jahon chempionati yo‘llanmasini qo‘lga kiritdi, joriy yil shaxmatchimiz Javohir Sindorov esa “Jahon toji” uchun nomzodlar turirida ishtirok etadi.

Shu bilan birga, bu natijalar bilan cheklanib qolmaslik, mavjud imkoniyatlar va yaratilgan sharoitlardan to‘liq foydalanish zarurligi ta’kidlandi. Ayrim sport turlari bo‘yicha natijalar hali mavjud infratuzilma va salohiyatga to‘liq mos kelmayotgani ko‘rsatib o‘tiladi.

Engavvalo, ommaviy sport bilan shug‘ullanuvchilarning sonini yaqin istiqbolda 17 million nafarga yetkazish zarurligi qayd etildi.

Xalqaro sport o‘yinlari va Olimpiadalar uchun munosib xazira yaratish maqsadida tashkil etilgan Prezident Olimpiadasi orqali ochiq va shaffof seleksiya tizimini yo‘lga qo‘yishni davom ettirish muhim ekani ko‘rsatib o‘tiladi.

Birinchi musobaqada 103 ming nafar sportchi ishtirok etdi, final bosqichida 11 ta sport turi bo‘yicha 3 mingdan ortiq sportchi 135 ta oltin, 134 ta kumush va 227 ta bronza medal uchun bellashdi.

Endilikda musobaqalarni yiliga 2 marta o‘tkazish va hududlarda 13-14 yosh toifasida tashkil etish, sport turlarining sonini bosqichma-bosqich 20 taga yetkazish topshirildi.

Shuningdek, o‘tgan yili Olimpiya shaharchasi va Milliy futbol markazi foydalanishga topshirilgani sport sohasida muhim tarixiy voqea sifatida qayd etildi. Hozirgi kunda Olimpiya shaharchasiga 17 ta olimpiya sport federatsiyasi va boshqa sport tashkilotlari ko‘chib o‘tgan. Endi ushbu majmualar o‘zbek sportining milliy timsoli va yagona klasteriga aylanishi lozimligi ta’kidlandi.

Sport sohasini yanada rivojlantirishda ilmiy yondashuvni kuchaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Ta’kidlanganidek, yuqori sport natijalariga erishish nafaqat infratuzilma va musobaqalar, balki sport fanining barcha yo‘nalishlarini tizimli rivojlantirish bilan bevosita bog‘liq.

Bu borada sport farmakologiyasi, diyetologiya, funksional va jismoniy tayyorgarlik, reabilitatsiya hamda yuqumli individual rejalashtirish bo‘yicha zamonaviy yondashuvlarni amaliyotga keng joriy etish vazifalari belgilandi. Ilmiy tadqiqot ishlari faollashtirish, sport sohasidagi ilg‘or ishlanmalar va so‘nggi tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, milliy va xalqaro darajada ilmiy anjumanlar va konferensiyalar o‘tkazish orqali tajriba almashinuvini kuchaytirish muhim ekani ta’kidlandi.

Shu bilan birga, sport sohasini rivojlantirishga xususiy

sektor va investorlarni keng jalb etish, sport infratuzilmasi, tayyorgarlik markazlari va sport xizmatlari bozorida investitsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash kerakligi aytiladi.

Yoshlarni ommaviy sportga jalb etishda sport maktablarining mahallalargacha kirib borishini ta’minlash, iqtidorli yoshlarni erta aniqlash va ularni maqsadli tayyorlash tizimini mustahkamlash zarurligi alohida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar oyida Toshkent shahrida o‘tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro sport tadbirlari haqida axborot berildi.

Xususan, Butunjahon suzish federatsiyasi Ijroiya byurosi yig‘ilishi, Markaziy Osiyo mintaqaviy antidoping tashkiloti (RADOCA) yig‘ilishi va xalqaro forum, shuningdek, Osiyo olimpiya kengashining 46-Bosh assambleyasiga mezbonlik qilish rejalashtirilgan qayd etildi.

Osiyo olimpiya kengashi 1982-yilda tashkil etilgan bo‘lib, Osiyo qit‘asida olimpiya harakatini muvofiqlashtiradi va 45 mamlakat milliy olimpiya qo‘mitasi unga a‘zo hisoblanadi. Bosh assambleya doirasida Osiyo olimpiya harakatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash hamda kengash prezidenti lavozimiga saylov o‘tkazish ko‘zda tutilgan.

Mazkur tadbirlarda Xalqaro olimpiya qo‘mitasi, Osiyo olimpiya kengashi, WADA, xalqaro sport federatsiyalari rahbarlari hamda boshqa nufuzli sport tashkilotlari vakillari ishtirok etishi, jami 360 nafardan ortiq xorijiy mehmon tashrif buyurishi kutilmoqda.

Davlatimiz rahbari ushbu tadbirlarni yuksak saviyada o‘tkazishga puxta tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha topshiriq berdi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston kurash sport turlari bo‘yicha mintaqada ham, jahon miqyosida ham barqaror va kuchli pozitsiyani egallamoqda. Endilikda bu sportni yanada ommalashtirish uchun Mintaqaviy sport kurashlari akademiyasi tashkil etilishi belgilandi.

Shuningdek, joriy yildan boshlab Prezident kubogi, “O‘zbekiston botirlari” turniri, Bosh prokuror kubogi, harbiy xizmatchilar o‘rtasida kurash sport musobaqalari doimiy o‘tkazib boriladi. 2026-yilda hududlarda qurilayotgan maktablarda milliy kurash bilan birga yunon-rum, erkin va ayollar kurashi bo‘yicha sportchilarni tayyorlash boshlanadi. Yil yakuniga qadar har bir tuman va shaharda kamida bittadan maktabda kurash sporti klublari ochiladi.

Davlatimiz rahbariga joriy yil Italiyada bo‘lib o‘tadigan XXV qishki Olimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston delegatsiyasining ishtiroki bo‘yicha ham axborot berildi.

Prezidentimiz belgilangan vazifalarni to‘liq va sifati bajarish, sportni ommalashtirish hamda xalqaro maydonda barqaror natijalarga erishishni ta’minlash bo‘yicha mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O‘ZA

TIBBIYOT SOHASIDAGI ISLOHOTLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN TAKLIFLAR MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini hamda sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Taqdimotda, avvalo, o‘tkir yurak qon-tomir va serebrovaskulyar kasalliklarning oldini olish va davolashni takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Rejaga ko‘ra, “Stent for Life” va “Action Plan for Stroke” xalqaro dasturlari asosida ishlab chiqilgan “Infarkt va insultga qarshi kurashish” milliy dasturi 2026-yil 1-maydan boshlab Samarqand viloyati va Toshkent shahrida, 1-oktabrdan Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida, 2027-yildan esa boshqa hududlarda amaliyotga joriy etiladi.

Milliy dastur doirasida 30 yoshdan oshgan aholi o‘rtasida so‘rovnomma o‘tkazish hamda natijasiga ko‘ra aniqlangan xavf guruhiga mansub fuqarolarni maqsadli tibbiy tekshiruvlardan o‘tkazish hamda bemorlarga shoshilinch tibbiy xizmat ko‘rsatish algoritmlari va klinik marshrutlarini amaliyotga joriy etish nazarda tutilgan.

Shuningdek, mazkur kasalliklarda shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatishda xalqaro standartlarga muvofiq “oltin soat” tamoyilining vaqt me‘yorlari joriy etiladi.

Taqdimotda tez tibbiy yordam xizmatining moddiy-texnik va raqamli imkoniyatlarini keskin oshirishga qaratilgan choralar ham keltirildi. Brigadalar telemetrik elektrokardiograf va monitorli defibrilyatorlar bilan ta’minlanadi. Shu jumladan, EKG natijalarini sun‘iy intellekt yordamida tahlil qilish va axborot tizimi orqali yuborish, shuningdek, tez tibbiy yordam brigadalari va shifoxonalar o‘rtasida real vaqt rejimida ma’lumot almashish joriy etiladi.

Statsionar tibbiyot muassasalarida insultni sun‘iy intellekt asosida tashxislash imkoniyati yaratilib, bemorlarning harakat marshrutlari raqamlashtirildi. Shifoxonalar esa shoshilinch holatlarda jarrohlik amaliyotlarini o‘tkazish uchun tromb erituvchi dori vositalari hamda zarur sarflor materiallari bilan ta’minlanadi.

Shoshilinch statsionar tibbiy xizmat ko‘rsatishga nodavlat tibbiyot tashkilotlarini jalb qilish, o‘tkir yurak qon-tomir va bosh miyada qon aylanishining o‘tkir buzilishi holatlarida ko‘rsatilgan tibbiy xizmatlar Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi orqali moliyalashtiriladi.

Milliy dastur doirasida “Elektron sog‘liqni saqlash” axborot tizimida bemorlar hamda xavf guruhidagi aholining elektron reyestri yuritilishi ta’minlanadi.

Aholi o‘rtasida profilaktika va targ‘ibot ishlariga ham alohida urg‘u berildi. OAV va ijtimoiy tarmoqlarda ijtimoiy rolliklar, infografika, animatsiya va qisqa metrajli videoroliklar tarqatish, bozor va savdo markazlari yaqinida bilbord va bannerlar joylashtirish, ta’lim muassasalari, korxona va mahallalarda infarkt va insult alomatlarini barvaqt aniqlash bo‘yicha seminar-treninglar o‘tkazish rejalashtirilgan.

Shuningdek, “Angels Initiative” xalqaro tashabbusining “FAST Heroes” dasturi asosida maktab o‘quvchilari uchun maxsus mashg‘ulotlar tashkil etiladi. Har yili 29-sentabr – Butunjahon yurak kuni va 29-oktabr – Butunjahon

insultga qarshi kurashish kuni munosabati bilan bepul qon bosimi, qand va xolesterin ko‘rsatkichlarini o‘lchash, aholining shoshilinch yordam ko‘rsatish bo‘yicha savodxonligini oshirishga qaratilgan ommaviy tadbirlar o‘tkaziladi.

Dasturni moliyalashtirishga 2026-yilda 239 milliard so‘m, 2027-yildan boshlab 280 milliard so‘m ajratilishi ta’kidlandi.

Taqdimotda, shuningdek, 2026-2030-yillarda qon bilan ishlash xizmatini yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqildi.

Qon mahsulotlariga talab ortib borayotgani inobatga olinib, xizmat imkoniyatlarini kengaytirish va davolash muassasalarining qon hamda qon mahsulotlariga ehtiyojini to‘liq ta’minlashga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlari ishlab chiqilgan.

Jumladan, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tavsiyalari asosida har ming nafar aholiga qon topshirishlarning (donatsiyalar) sonini 10 tadan 30 tagacha oshirish, jami donatsiyalarning sonini 1 milliontagacha ko‘paytirish orqali tayyorlanadigan qon xazirasini 150 ming litrdan 450 ming litrga yetkazish, beg‘araz qon donorlarining sonini 300 ming nafardan 900 ming nafarga yetkazish maqsad qilingan.

Yetakchi xalqaro tajriba asosida qon va uning tarkibiy qismlari xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan standart operation jarayonlar, xavfsizlik bayonnomalari hamda zamonaviy skrining usullari joriy etiladi. Shu bilan birga, qon xizmati tizimi xodimlarining kasbiy bilim va ko‘nikmalari oshiriladi, moddiy-texnik bazasi mustahkamlanadi hamda beg‘araz donorlik harakati qo‘llab-quvvatlanadi.

Qon bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish uchun “ehtiyot — qayta ishlash — yetkazish” janjirida jarayonlarni boshqarish tizimi joriy etiladi.

Raqamli platforma doirasida “Qon mahsulotlari elektron hisobini yuritish” axborot tizimi joriy qilinib, qon va uning tarkibiy qismlari harakatini nazorat qilish, shoshilinch tibbiy yordam bilan integratsiyalangan holda buyurtma berish, muassasalarning xazirasini onlayn monitoring qilish imkoniyati yaratiladi.

Qon bilan ishlash xizmatini moliyalashtirish uchun 2026-yilda 308 milliard so‘m, 2026-2030-yillarda esa sohani takomillashtirishga jami 1,75 trillion so‘m nazarda tutilgani qayd etildi.

Taqdimotda respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markazlar va klinikalar faoliyatini o‘rganish natijalari haqida axborot berildi.

Ishchi guruhlar 2025-yil sentabr-dekabr oylarida 37 ta respublika darajasidagi tibbiyot markazlari va klinikalar faoliyatini kompleks o‘rganib, qator tashkiliy va boshqaruv kamchiliklarini aniqlagan. Ularni bartaraf etish uchun 27 ta banddan iborat chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqilgan bo‘lib, u tibbiy xizmat sifatini oshirish, hududlar bilan ishlashni tizimli yo‘lga qo‘yish, boshqaruv tizimini takomillashtirish, kadrlar salohiyati va ilmiy tadqiqot

faoliyati, moliyaviy intizom va resurslardan samarali foydalanish yo‘nalishlarini qamrab oladi.

Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishda xorijiy ekspertlarni jalb etish masalasi ham muhokama qilindi.

Jamoat salomatligi, sog‘liqni saqlashni rejalashtirish va milliy laboratoriya tizimini isloh qilish bo‘yicha texnik shartlar ishlab chiqilgan bo‘lib, mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirishda 25 ta xalqaro va 19 ta mahalliy ekspertni jalb qilish taklif etildi.

Shuningdek, Respublika onkologiya markazi va uning hududiy filiallarini modernizatsiya qilish loyihasi taqdimot qilindi.

2021-yilda Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlikda “O‘zbekiston Respublikasi onkologiya muassasalarini modernizatsiya qilish (II bosqich)” loyihasi doirasida markazning yangi majmuasi va uning 13 ta filiali uchun jami 61 million dollarlik 119 turdagi tibbiy uskunalar xarid qilingan. Yana 5,6 million dollar hisobiga qo‘shimcha 5 turdagi uskunalar xarid qilinishi nazarda tutilgan.

Bunga qo‘shimcha ravishda jalb qilinadigan 10 million dollar hisobidan markaz uchun 80 turdagi 1027 dona tibbiy jihozlar, shuningdek, radiofarmatsevtik mahsulotlar ishlab chiqarishga mo‘ljallangan siklotron va radiosintez laboratoriyasini xarid qilish taklif etildi.

Shuningdek, davlatimiz rahbariga farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish, aholini arzon va sifatli dori vositalari bilan ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida axborot berildi.

Farmatsevtika tarmog‘i hozirda sanoatimizning yuqori sur‘atlarda o‘sib borayotgan yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Bugungi kunda tarmoqda 2,3 milliard dollarlik 156 ta loyiha amalga oshirilmoqda, 2025-yilda 362 million dollarlik xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirildi hamda 2,4 mingdan ziyod yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Tarmoq korxonalari tomonidan qiymati 7,3 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi, dunyoning 55 ta davlatiga 220 million dollarlik mahsulotlar eksport qilindi.

Dori vositalari sifatini ta’minlash va byurokratiyani qisqartirish bo‘yicha amalga oshirilgan so‘nggi islohotlar natijasida tadbirkorlar tomonidan ilk bor 130 turdagi import dori vositalarini transfer texnologiyasi asosida O‘zbekistonda ishlab chiqarish bo‘yicha ishlar boshlandi.

Shuningdek, 2 ming nomdagi import dori vositalarining referent narxlariga qayta belgilangan hisobiga dorilarning ulgurji narxlari 40-60 foizga pasaytirildi.

Taqdimotda import o‘rmini bosuvchi mahalliy dori vositalarining sifatini oshirish hamda ommabopligini ta’minlash, buning uchun investorlarga zarur shart-sharoitlar yaratish, ishlab chiqarish va laboratoriya quvvatlarini oshirish hamda shaffof sifat nazorati tizimini yo‘lga qo‘yish zarurligi ta’kidlandi.

Prezidentimiz takliflarni ma’qullab, tegishli qarorlarni imzoladi. Mutasaddilarga belgilangan chora-tadbirlarni o‘z vaqtida va sifati bajarish, muhokama qilingan yo‘nalishlarda aniq natijalarga erishish topshirildi.

O‘ZA

RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA USTUVOR VAZIFALAR KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raqamli texnologiyalarni rivojlantirish sohasida erishilgan natijalar hamda 2026-yilga mo‘ljallangan ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan taqdimot bilan tanishdi.

Taqdimotda so‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish va innovatsion ekotizimni shakllantirish bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirilgani qayd etildi. Xorijiy ekspertlarning tahlillariga ko‘ra, 2024-2025-yillarda mamlakatimizdagi startap va ventur ekotizimining umumiy qiymati 3,9 milliard dollarga yetdi. Mahalliy startaplarning soni 750 tadan oshdi. Hozirgi kunda 15 ta ventur fond faoliyat yuritmoqda, ventur kapital hajmi esa 180 million dollardan oshdi.

O‘zbekiston dunyodagi ikkinchi eng tez o‘sayotgan va Markaziy Osiyodagi eng tez rivojlanayotgan startap ekotizimi deb e’tirof etilmoqda.

Taqdimotda 2030-yilga qadar startaplarning sonini 5 mingga, eksport bozorlariga chiqqan startaplarning sonini 200 taga yetkazish, ventur investitsiyalarning hajmini 2 milliard dollarga olib chiqish maqsad qilingani ta’kidlandi.

Shu maqsadda xalqaro tajriba asosida startaplarni qo‘llab-quvvatlashning to‘rt bosqichli tizimi joriy etilmoqda. G‘oya, ishlab chiqish, ishga tushirish va mashtablashtirish

bosqichlarida grantlar, soliq imtiyozlari, qo‘shma moliyalashtirish, eksport xarajatlarini qoplash uchun moliyaviy resurslar yo‘naltirildi.

Elektron davlat xizmatlarini yanada rivojlantirish rejalarini ko‘rib chiqildi.

Raqamli xizmatlar sonini 900 tagacha yetkazish, “MyGov.uz” mobil ilovasining funksionalini kengaytirish, 50 tadan ortiq xizmatlarda sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish. Aholining yagona reyestrini ishlab chiqish, tadbirkorlik subyektni ochish, yakka tartibdagi tadbirkorlik xodimlarini hisobga qo‘yish, bank plastik kartasini ochish, sim-karta olish, sug‘urta va reklama xizmatlarini raqamlashtirish rejalashtirilgan.

Taqdimotda sun‘iy intellekt texnologiyalari uchun infratuzilma yaratish ishlarining borishi haqida axborot berildi.

Xususan, hozirgi kunda zamonaviy kichik superkompyuter ishga tushirildi, katta superkompyuterni xarid qilish va ishga tushirish ishlari faol bosqichda. Loyihani amalga oshirish natijasida 15 ta oliy ta’lim muassasasida sun‘iy intellekt laboratoriyalari tashkil etiladi, sohadagi mutaxassislarning salohiyati oshadi, mahalliy SI

yechimlarini joriy etish imkoniyatlari yaratiladi. Mamlakatimiz hududlarida zamonaviy data-markazlar tarmog‘ini kengaytirish, ma’lumotlar xavfsizligi va uzluksizligini ta’minlash zarurligi qayd etildi.

Telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Bu borada barqaror o‘sish sur‘atlariga erishilayotgani, internet tezligi va qamrovi yildan yilga oshib, mobil aloqa xizmatlarining sifati yaxshilangani ta’kidlandi. 2026-yilda 5G texnologiyalarini joriy etish va aholi punktlarini yuqori tezlikdagi internet bilan qamrab olishni davom ettirish, shuningdek, sun‘iy yo‘ldosh aloqasidan foydalanishni kengaytirish rejalashtirilgan.

Prezidentimiz raqamli texnologiyalar iqtisodiyot tarmoqlari raqobatbardoshligini hamda davlat boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish va aholi hayoti sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlab, belgilangan vazifalarni bajarish bo‘yicha mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O‘ZA



XALQ VA ARMIYA — BIR TAN-U BIR JON

PROAKTIV MUDOFAA: O‘ZBEKISTON ARMIYASINING YANGI MISSIYASI



Xavfsizlik kengashining 2026-yil 13-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan kengaytirilgan yig‘ilishi mamlakat harbiy xavfsizligi va mudofaasini mustahkamlash masalalariga yangicha, strategik qarashni namoyon etdi. Yig‘ilishda bildirilgan fikr va belgilangan vazifalar bir haqiqatni yanada oydinlashtirdi: bugun tinchlik eng qimmatbaho boylik bo‘lib, u davlat barqarorligi va taraqqiyotini ta’minlovchi strategik resursga aylandi.

Zamonaviy dunyoda tinchlikni saqlash endi faqat kuch ishlatish yoki harbiy qudratni namoyish etish bilan cheklanmaydi. U oldindan o‘ylangan, tizimli, intellektual yondashuvni talab qiladi. Shu ma’noda, Prezidentimiz barcha soha va tarmoqlar xavf-xatarlarga oldindan javob qaytarishga qodir “proaktiv ish rejimi”ga o‘tishi shartligini alohida ta’kidladi. Bu fikr milliy xavfsizlik siyosatida sifat jihatidan yangi bosqich boshlanganini anglatadi.

Davomi 3-betda



PROAKTIV MUDOFAA: O‘ZBEKISTON ARMIYASINING YANGI MISSIYASI



Olimjon O‘SAROV,
mudofaa vazirining
vatanparvarlik targ‘iboti,
ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar va
yoshlar masalalari
bo‘yicha maslahatchisi

Boshlanishi 1-betda

Proaktiv va reaktiv ish rejimlari o‘rtasidagi farq bugun global beqarorlik, tez o‘zgaruvchan tahdidlar va asimmetrik xavflar sharoitida har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Reaktiv yondashuvda odatda muammo yoki tahdid yuzaga kelgandan so‘ng ishga tushib, vaziyatga shoshilinch moslashish, resurslarni favqulodda tarzda safarbar qilish, qisqa muddatli qarorlar qabul qilish talab etiladi. Bunday sharoitda inson omiliga bosim ortib, xatolik ehtimoli, moliyaviy xarajatlar, ijtimoiy va ma‘naviy yo‘qotishlar ko‘payishi muqarrar bo‘ladi. Eng muhimi, reaktiv yondashuv ko‘p hollarda oqibatlar bilan kurashishni anglatib, tahdid manbaiga chuqur yechim berish imkonini cheklab qo‘yadi.

Proaktiv yondashuv esa mutlaqo boshqa strategik tafakkurga tayanadi. U xavf-xatarlarni oldindan ilg‘ash, ularning ehtimoliy rivojlanish yo‘llarini tahlil qilish, doimiy monitoring va

prognoz asosida ssenariylar ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bunday yondashuvda profilaktika asosiy vositaga aylanadi, ya‘ni oldindan belgilangan harakat algoritmlari, rezerv resurslar, tayyor kadrlar va raqamli boshqaruv tizimlari orqali xavf hali yuzaga kelmasidan oldin uning ta‘siri cheklanadi. Natijada davlat va jamiyat tizimlari barqaror ishlaydi, xarajatlar optimallashtiriladi, qaror qabul qilish jarayoni izchil va samarali kechadi.

Aynan shu ma‘noda, proaktiv ish rejimi nafaqat harbiy sohada, balki davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, axborot xavfsizligi hamda jamiyat barqarorligi uchun ham eng to‘g‘ri va zamonaviy yo‘l sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, zamonaviy urushlar tabiati so‘nggi yillarda tubdan o‘zgardi va bu jarayon ortga qaytmaydigan global tendensiyaga aylandi. Endi g‘alaba qaror qabul qilish tezligi, axborot ustunligi va texnologik afzallik bilan belgilanmoqda. Raqamli boshqaruv tizimlari, sun‘iy intellektga asoslangan tahlil va prognoz, kiber va robot texnologiyalari, shuningdek, uzoq masofadan yuqori aniqlikda ta‘sir ko‘rsatish imkoniyatlari zamonaviy harbiy qudratning asosiy o‘lchoviga aylandi. Bunday sharoitda kechikib qabul qilingan qaror hatto kuchli resurslarga ega davlat uchun ham jiddiy strategik yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin. Shu bois, sakkiz yil avval qabul qilingan Mudofaa doktrinasini va 1997-yilda tasdiqlangan Milliy xavfsizlik konsepsiyasini qayta ko‘rib chiqish zarurati ochiq va qat‘iy tarzda qayd etildi. Bu yangilanish O‘zbekistonning xavf-xatarlarni oldindan baholaydigan, profilaktikaga tayangan va strategik fikrga asoslangan mutlaqo yangi — proaktiv mudofaa siyosatiga o‘tishi demakdir.

Yangilanadigan doktrina O‘zbekistonning tashqi siyosatdagi asosiy prinsipi — hech qaysi harbiy blokka qo‘shilmaslik tamoyilini qat‘iy saqlab qolgan holda ishlab chiqilishi alohida



ta‘kidlandi. Bu yondashuv mamlakatning mustaqil davlat sifatidagi mavqeiini mustahkamlaydi, tashqi siyosatda muvozanatni ta‘minlaydi va mintaqada ishonch hamda barqarorlikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, u mudofaa sohasida tashqi qaramlikka emas, balki o‘z imkoniyatlari, milliy ilmiy-texnik salohiyat va inson kapitaliga tayangan barqaror rivojlanish modelini anglatadi. Aynan shu nuqtayi nazardan, uchuvchisiz tizimlar, robotlashgan majmualar, yuqori aniqlikdagi qurol-aslaha, kibexavfsizlik va raqamli infratuzilma barqarorligi ustuvor vazifalar sifatida belgilab berildi. Bu ustuvorliklar O‘zbekiston mudofaa siyosatida texnologiya va intellekt hal qiluvchi omilga aylanayotganini, armiya esa nafaqat jang maydonida, balki axborot va kibermakonda ham samarali harakat qila olishi kerakligiga ishora beradi.

Proaktiv armiya konsepsiyasida inson kapitali hal qiluvchi o‘rin tutadi. Chunki zamonaviy harbiy qudrat, avvalo, inson tafakkuri, bilimi va mas‘uliyati bilan o‘lchanadi. “Askar — faqat jangchi emas, kelajak mutaxassisi” tamoyili aynan shu strategik qarashning amaliy ifodasidir. Bu yondashuv armiyani yopiq tizim emas, balki jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy institut sifatida ko‘radi. Shu bois, yig‘ilishda muddatli harbiy xizmatga faqat harbiy tayyorgarlik bosqichi sifatida emas, balki yoshlarni mustaqil hayotga, mehnat bozoriga va faol fuqarolik pozitsiyasiga tayyorlaydigan hayotiy maktab sifatida yondashish vazifasi

qo‘yildi. Prezidentimiz ta‘biri bilan aytganda, “muddatli harbiy xizmatni o‘tash — yoshlar uchun muvaffaqiyat yo‘li”ga aylanishi lozim.

Ana shu g‘oyaning mantiqiy davomi sifatida harbiy qismlar ixtisosidan kelib chiqqan holda, 3-6 oylik kasbga tayyorlash dasturlarini joriy etish, malaka imtihonlari va sertifikatlar berish tizimini shakllantirish rejalashtirildi. Bu nafaqat xizmat davrida askarning qobiliyatini rivojlantiradi, balki uni xizmatdan keyin ham iqtidorli kadr sifatida jamiyatga qaytarishni ko‘zlaydi. Ayniqsa, har yili 5 ming askarni raqamli yo‘nalishlarda tayyorlash tashabbusi armiya bilan iqtisodiyot o‘rtasida strategik ko‘priq vazifasini bajaradi. Bu yondashuv milliy xavfsizlikni faqat qurol-aslaha bilan emas, balki bilim, intellekt va texnologiya bilan ta‘minlash mumkinligini amalda isbotlaydi.

Inson kapitaliga bunday yondashuv Prezidentimizning bayram tabrigida ham chuqur ma‘naviy mazmun bilan davom etdi. Vatan himoyasi yo‘lida halok bo‘lgan qahramonlar xotirasiga bildirilgan yuksak ehtirom, ularni tarbiyalagan ota-onalar va oilalariga izhor etilgan minnatdorlik armiya bilan xalq o‘rtasidagi ma‘naviy birlikni yanada mustahkamladi. Bu birlik “Xalq va armiya — bir tan-u bir jon” degan umummilliy g‘oyada o‘z ifodasini topmoqda. Chunki xalq ishonchiga tayangan armiyagina haqiqiy kuchga aylanadi. Dunyoda kechayotgan harbiy-siyosiy vaziyat, ayrim davlatlarda yuz bergan voqealar bu g‘oyaning naqadar dolzarbligini amalda namoyon etdi.

Ma‘naviy birlik ijtimoiy adolat va g‘amxo‘rlik bilan mustahkamlanmasa, u barqaror bo‘la olmaydi. Shu nuqtayi nazardan, yig‘ilishda harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha aniq va manzilli choralar e‘lon qilindi. Ofiserlar uchun ko‘p yillik xizmat ustamasining 100 foiz oshirilishi, kontrakt asosida xizmat qilayotgan askar va serjantlar oyligining ko‘paytirilishi, harbiy bo‘lmagan xodimlar maoshining bosqichma-bosqich

oshirib borilishi hamda uzoq yil xizmat qilgan harbiylar uchun pensiya hisoblash bazasining kengaytirilishi armiyani faqat “qudrat simoli” emas, balki harbiyning oilasi, kelajagi va sha‘ni qadrlanadigan ijtimoiy institut sifatida shakllantirishga qaratilgan.

Harbiy ta‘lim va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan modernizatsiyalash proaktiv mudofaa siyosatining eng muhim va hal qiluvchi yo‘nalishi sifatida belgilanmoqda. Chunki zamonaviy urush va xavfsizlikni saqlash muhitida texnologiyaning o‘zi yetarli emas, uni to‘g‘ri anglaydigan, boshqara oladigan, strategik fikrlaydigan inson bo‘lmasa, eng ilg‘or qurol ham kutilgan natijani bermaydi. Shu ma‘noda, yangicha harbiy ta‘lim tizimi tahdidni oldindan ko‘ra oladigan, qaror qabul qilishda tashabbuskor, vaziyatni kompleks baholaydigan yangi avlod harbiy kadrlarini shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Bu esa ta‘lim mazmuni, uslub va maqsadini tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Proaktiv mudofaa siyosati aynan shu yerda o‘zining chuqur falsafiy va amaliy mazmunini namoyon qiladi. U faqat jangga emas, balki tinchlikni saqlashga tayyorlikdir, u faqat tahdidga javob berish emas, balki tahdid paydo bo‘lishidan oldin uni bartaraf etishga qaratilgan davlat tafakkuridir. Bunday yondashuvda armiya davlat barqarorligining intellektual va ma‘naviy tayanchiga aylanadi. Inson kapitali, harbiy ta‘lim, ijtimoiy himoya, ma‘naviy tarbiya va texnologik ustunlikka bir-birini to‘ldiruvchi yagona tizim sifatida qaratiladi.

Shu nuqtayi nazardan, muddatli harbiy xizmatni yoshlar uchun “hayot maktabi”ga aylantirish, raqamli va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini mustahkamlash ham tasodifiy qarorlar emas. Bu choralar proaktiv mudofaa siyosatining insonga qaratilgan strategik yo‘nalishini ifoda etadi. Proaktiv mudofaa siyosati ayni paytda O‘zbekistonning tashqi siyosatdagi muvozanatli yo‘lini ham mustahkamlaydi. Hech qaysi harbiy blokka qo‘shilmaslik tamoyili, mintaqaviy barqarorlikka intilish va ko‘p tomonlama diplomatiya bilan uyg‘un holda bu siyosat mamlakatning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini saqlab qolishga xizmat qiladi. Demak, proaktiv yondashuv nafaqat harbiy sohada, balki davlatchilik tafakkurida ham yangi sifat bosqichini anglatadi.

Proaktiv mudofaa siyosati tinchlikni saqlashga qaratilgan milliy strategiyadir. U kuchga emas, aqlga, qo‘rquvga emas, oldindan tayyorgarlikka, tasodifga emas, reja va tizimga tayanadi. Xalq va armiya bir tan-u bir jon bo‘lib harakat qilishni boshlagan sharoitda yangi O‘zbekistonning tinchligi, sha‘ni va istiqboli ishonchli qo‘llarda bo‘ladi.



MUNOSABAT



Aktam HAITOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasidagi fraksiya rahbari

Shu jihatdan, Prezidentimiz raisligida 15-yanvar kuni bo‘lib o‘tgan Tashqi ishlar vazirligi hamda xorijdagi diplomatik vakolatxonalar faoliyatiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi nafaqat sohada qilingan ishlarga xolis baho berish, balki kelgusi davr uchun aniq va amaliy vazifalarni belgilab olish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etdi. Davlatimiz rahbari tashqi siyosatda tanqidiy tahlil va yangicha yondashuvlar zarurligini ta‘kidlar ekan, diplomatik xizmat oldiga aniq natijaga qaratilgan talablarni qo‘ydi.

FAOL TASHQI SIYOSAT VA IQTISODIY DIPLOMATIYA

**Jahonda geosiyosiy ziddiyatlar kuchayib,
davlatlar suvereniteti va milliy manfaatlariga tahdidlar ortib
borayotgan murakkab bir sharoitda O‘zbekiston tashqi siyosati
mazmungan yangi bosqichga ko‘tarilmoqda.**

O‘tgan yillardagi faoliyat sarhisob qilinar ekan, haqli e‘tirof etilganidek, 2025-yil O‘zbekiston tashqi siyosati uchun sarmahsul bo‘ldi. Oliy darajadagi tashriflar geografiyasi kengaydi, “Markaziy Osiyo plus” formati doirasidagi muloqotlar mintaqaviy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi. Strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari kengayishi mamlakatimizning xalqaro maydondagi o‘rni mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, ochiq, pragmatik va tashabbuskor tashqi siyosat tufayli O‘zbekiston tobora global tinchlik va diplomatiya markazlaridan biriga aylanib bormoqda.

Shu bilan birga, davlatimiz rahbari imkoniyatlardan to‘liq foydalanish masalasini qat‘iy qo‘ydi. Elchi faoliyatiga yondashuv tubdan o‘zgarishi zarurligi ta‘kidlandi. Bugungi elchi faqat siyosiy muloqot yurituvchi

emas, balki investitsiya va texnologiyalarni jalb etuvchi, eksport bozorlarini ochuvchi, transport-logistika yo‘laklarini rivojlantiruvchi, turizm va qonuniy mehnat migratsiyasini kengaytiruvchi hamda fuqarolar huquqlarini himoya qiluvchi davlat vakili sifatida baholanishi belgilandi. Shu munosabat bilan elchilar faoliyati samaradorligi aniq iqtisodiy ko‘rsatkichlar — eksport hajmi, investitsiya loyihalari, turistlar oqimi va mehnat migratsiyasi natijalariga asosan o‘lchanishi qayd etildi.

Iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirish yig‘ilishdagi markaziy masalalardan biri bo‘ldi. 2025-yilda imzolangan 160 milliard dollarlik investitsiya va savdo bitimlari, tashqi savdo aylanmasining ilk bor 80 milliard dollardan oshgani tashqi siyosat bilan iqtisodiy islohotlar uyg‘unligining amaliy natijasidir. Biroq ayrim bozorlarda milliy mahsulotlarimiz yetarlicha



tanitilmayotgani, logistika xarajatlarining ortishi raqobatbardoshlikka salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgani tanqid qilindi. Shu bois, Yevropa, Yaqin Sharq, Osiyo va Afrika bozorlariga chiqishda eksport geografiyasini kengaytirish, tranzit yo‘nalishlarni diversifikatsiya qilish va logistika zanjirlarini qisqartirish bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

Alohida e‘tibor qishloq xo‘jaligi, kimyo sanoati, to‘qimachilik va xizmatlar sohalarida eksportbop loyihalarga qaratildi. Innovation issiqxonalar, tejamkor texnologiyalar tajribasini o‘rganish va joriy etish, standart va talablar bilan ishlash, xalqaro ko‘rgazmalar orqali milliy mahsulotlarni ilgari surish elchilarning ustuvor vazifalari sifatida belgilandi. Yangi eksport yo‘nalishi sifatida Afrika qit‘asi bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish zarurligi qayd etilib, bu borada aniq “yo‘l xaritasi” ishlab chiqish topshirildi.

etish orqali inson kapitali salohiyatini oshirish muhim yo‘nalish sifatida belgilandi.


Fuqarolar huquq va manfaatlarini himoya qilish, qonuniy va yuqori daromadli mehnat migratsiyasini kengaytirish ham yig‘ilishda ustuvor vazifalar qatorida qayd etildi. Prezidentimiz “kabinet diplomatiyasi”dan voz kechib, joylarda faol ishlash, vatandoshlar bilan bevosita muloqot qilish zarurligini ta‘kidladi. Turizm va tashqi axborot siyosatida ham elchixonalar faolligini oshirish, mamlakat imjini xalqaro maydonda tizimli ravishda ilgari surish talab etildi.

Tashqi siyosat faoliyati konsepsiyasini yangilash eng muhim vazifa sifatida belgilab berildi. Yangi konsepsiya mamlakatning uzoq muddatli strategik maqsadlari, iqtisodiy diplomatiya, xavfsizlik, investitsiya, eksport, transport-logistika hamda suv va iqlim masalalaridagi milliy manfaatlarini yaxlit qamrab olishi ko‘zda tutilgan. Shuningdek, diplomatlar mehnatini munosib baholash maqsadida “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan diplomat” faxriy unvonini ta‘sis etish taklifi ilgari surildi.

Mazkur videoselektor yig‘ilishi O‘zbekiston tashqi siyosatida yangi talabchanlik, aniq natija va mas‘uliyat tamoyillarini mustahkamlaydi. Prezidentimiz belgilab bergan vazifalar diplomatik xizmatni faol, tashabbuskor va iqtisodiy manfaatlariga xizmat qiluvchi samarali institutga aylantirishga qaratilgan. Endi asosiy masala ushbu topshiriqlarni amaliy natijalar bilan ta‘minlash, tashqi siyosatni mamlakat taraqqiyoti va xalq farovonligiga xizmat qiladigan kuchli vositaga aylantirishdan iborat.



Zamonaviy mehnat bozori transformatsiyasi yoshlardan yuqori darajada kasbiy moslashuvchanlikni talab qilmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining 2025-yildagi barqaror rivojlanish bo'yicha hisobotida ilm-fan, texnikaning jadal rivojlanishi ta'lim tizimi oldiga yangi va tobora qiyin vazifalarni qo'yayotgani ta'kidlangani ham bejiz emas.



IXTISOSLASHTIRILGAN

TA'LIM

Chindan rekord natijalarga OMIL BO'LYAPTI

Shu yilning 10–15-yanvar kunlari Qozog'istonning Olmaota shahrida 22-xalqaro Jautikov olimpiadasi bo'lib o'tdi. Dunyoning 15 mamlakatidan kelgan 700 dan ziyod o'quvchilar orasida o'zbekistonlik ishtirokchilar yana bir rekord natijani qayd etdi. Matematika, fizika va informatika fanlari bo'yicha bilimlar sinladigan olimpiadada Prezident hamda ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilarining ulushi katta. Ular jamoaga 2 ta oltin, 7 ta kumush, 5 ta bronza medalni taqdim etdi. Oltin medal sovrindori Jahonali Haydaraliyev Muhammad al-Xorazmiy maktabi, Ulug'bek Rahmatullayev esa Namangan Prezident maktabi faxriga aylandi.



Aytish joiz, xalqaro Jautikov olimpiadasi mintaqaviy xalqaro olimpiadalar ro'yxatiga kiritilgan, g'olib o'quvchilar va ularning ustozlari pul mukofotlari bilan taqdirlanadi.

2021-yilda Farg'ona shahridagi Prezident maktabiga sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib, 7-sinfga qabul qilingan Dilafo'z Sobirjonova maktabni bitirguncha qadar xalqaro IELTS imtihonidan 8 ball, SAT imtihonidan 1540 ballni naqd qildi. Nemis tili bo'yicha imtihonda ham B2 darajani qo'lga kiritdi. Shuningdek, u rus va turk tillarini mukammal o'zlashtirgan. Ilm yo'lidagi harakatlar besamar ketmadi. AQSHdagi Garvard universitetining 392 ming dollar miqdoridagi to'liq grant sohibiga aylandi. Nufuzli oliygohda o'qib, biologiya va axborot texnologiyalari yo'nalishida ilmiy tadqiqotlar olib bormoqchi.

Yurtimizda sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish, atrof-muhit muhofazasiga daxldor kashfiyotlar qilishdan tashqari, Dilafo'zning "O'zbekim gavhari" loyihasiga qo'l urgani quvonarli. Yosh bo'la turib, jamiyatimizdagi ayol-qizlarni zamonaviy kasblar hamda chet tillari bo'yicha bepul bilim olishiga ko'maklashish maqsadi uni loyiha yaratishga undadi. Bu orqali zamonaviy kasblar, xususan, AT, dasturlash, til o'rganish, veb-dizayn kabi sohalarida bilim va ko'nikmalar ulashish rejalashtirilgan.

Dilafo'zning maktabdoshi bo'lgan 11-sinf o'quvchisi Otabek Komilov esa dunyoning eng nufuzli oliy ta'lim muassasalaridan biri — Muhammad bin Zoid nomidagi Sun'iy intellekt universitetiga to'liq grant asosida qabul qilindi. Bu dunyoda sun'iy intellektga ixtisoslashgan birinchi universitet bo'lib, o'z yo'nalishida dunyoning TOP-10 universitetlari safidan joy olgan. Unga 4 yilga jami 180 ming dollar miqdoridagi to'liq grant taqdim etildi. Chunonchi, Otabek IELTS imtihonidan 7 ball olgani holda, AMC (Amerika matematika musobaqasi), SEAMO (Janubi-Sharqiy Osiyo matematika olimpiadasi) — milliy bosqichida oltin medalni qo'lga kiritgan. B2E nomli sun'iy intellekt loyihasi asoschisi.

— Dadam usta duradgor bo'lsa-da, bizga hamisha "Bilim eng katta boylik, imkoniyat berilsa, undan to'g'ri foydalanish kerak", deb uqtirgan, — deydi u. — Shuningdek, shukronalik hissi, mehnatning qadriga yetish va vaqtni bekorga sarflamaslik bo'yicha bergan maslahatlari hayotiy qarashlarimni shakllantirgan. Onam patronaj hamshira. U menga insonlarga foyda keltirish, jamiyatga xizmat qilish nechog'liq sharafi ekanini singdirgan. Bugun men erishgan natijalar, avvalo,

ota-onamning xizmati, tarbiyasi va ishonchi samarasi, qolaversa, barcha ustozlarimning mashgaqqatli mehnatlari mevasi deb bilaman. Agar davlatimiz biz, yoshlarga keng imkoniyatlar bermaganida, bunday muvaffaqiyatlarga erishishimiz qiyin edi. Zero, yutuqlarimning eng katta ulushi Prezident maktabi hissasiga to'g'ri keladi.

Qarshi shahridagi Prezident maktabining 11-sinf o'quvchisi Asilbek Sattorov ham yaqindagina dunyoning nufuzli oliy ta'lim muassasalaridan bo'lgan — Gonkong politexnika universitetiga to'liq grant asosida qabul qilindi. Bu Xitoyning davlat tadqiqot universiteti hisoblanib, texnik ta'limda birinchi bo'lib tashkil etilgan va xalqaro reytingda 54-o'rinni egallagan. Grant miqdori 4 yil uchun 128 ming dollar. Shuningdek, yillik 6 ming dollar miqdoridagi stipendiya. O'quvchimizga 2026/2027-o'quv yili uchun 4 yillik bakalavr dasturi va qo'shimcha dasturlar bo'yicha rasmiy taklif xati taqdim etildi. Asilbekning IELTS bali — 7.5, SAT imtihonidagi natijasi — 1500 ball.

Prezident maktabi direktori Anvar To'rayev tizim yutug'i iqtidorli tengdoshlar o'rtasidagi sog'lom raqobatda ekanini aytdi. Zero, olimpiadalar, har xil tanlovlar o'tkaziladi, ilmiy loyihalarda o'quvchilar bir-biri bilan sog'lom raqobat olib boradi. Zamonaviy laboratoriyalar, AT sinflar mavjudligi, o'quvchilar soni kamligi zamonaviy yondashuvda qo'l keladi. Darsdan tashqari to'garaklar ham o'quvchilar uchun katta qo'llab-quvvatlov hisoblanadi. Qolaversa, xalqaro hamkorliklar ham muhim o'rinni tutadi.

Bugun ko'p sonli xalqimiz, xususan, ota-onalar Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarning farzandlari hayotidagi o'rinni juda yaxshi tushunib yetaypti. Imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tib, eng zamonaviy dargohlarda ta'lim ola boshlagan yoshlar tez fursatda iqtidorini namoyon etib, ishonchini oqlayotgani quvonarli. Shunday ekan, ta'limni ixtisoslashtirish va shu orqali intellektual salohiyatni oshirish yo'lini to'g'ri tanlaganimiz rost.

Munojat MO'MINOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Prezidentimizning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasi tizimni transformatsiyalar davrining fundamental dasturini belgilab berdi. Davlatimiz rahbarining "Mashaqqatli va sharaflı mehnatimiz bilan dunyoda hurmat topayotgan, ertangi kunga ishonch bilan dadil borayotgan, matonatli va g'ururi baland millatimiz" degan so'zlari yangi O'zbekiston taraqqiyot yo'lida o'z oldiga ulkan maqsad va vazifalar qo'ygani anglatadi.

hamda ekologiya sohalarida kutilayotgan islohotlar aynan intellektual salohiyatga asoslangan yangicha tafakkur talab etadi.


Yangi O'zbekistonning iqtisodiy qudrati ilk bor yalpi ichki mahsulot hajmining 145 milliard dollardan oshgani, kambag'allik darajasining 5,8 foizga tushgani va eksport qiymatining 33,4 milliard dollarga yetgani bilan asoslanar ekan, bu o'sishning barqarorligi faqat yuqori texnologik bilimlarga ega kadrlar orqali ta'minlanadi.

Toshkent shahri, Buxoro, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida 4 ta yirik data-markaz, ya'ni ulkan hajmdagi ma'lumotlarni xavfsiz saqlaydigan, yuqori tezlikda qayta ishlaydigan va uzatadigan "raqamli ombor" hamda 2 ta superkompyuter ishga tushirilishi, shuningdek, 15 ta nufuzli oliygohda sun'iy intellekt laboratoriyalari faoliyati yo'lga qo'yilishi mamlakatimizda "bilimlar iqtisodiyoti" poydevorini mustahkamlaydi. Bu infratuzilma tibbiyot, transport, qishloq xo'jaligi, geologiya va bank-moliya kabi hayotiy muhim sohalarida 100 dan ortiq sun'iy intellekt loyihalarini hayotga tatbiq etish imkonini beradi. Minglab iqtidorli yoshlarimizning kvant texnologiyalari, dronlar va robototexnika yo'nalishidagi konstruktorlik ishlarnalarini amaliyotga tatbiq qilish uchun "Raqamli texnologiyalar markazi" tashkil etilishi yosh avlodning intellektual faolligini yangi bosqichga ko'taradi.



KELAJAKKA YO'NALTIRILGAN

ENG SAMARALI-SARMOYA



YUKSALISH PALLASI

Eng hayratlanarli voqea — mustaqil O'zbekiston tarixida ilk bor kosmik sohada sun'iy yo'lodsh va mamlakatimiz fuqarosi bo'lgan birinchi o'zbek kosmonavtining fazoga uchirilishi bo'yicha ishlar boshlanishidir. Bu nafaqat texnologik yutuq, balki butun ta'lim tizimi uchun kuchli ilmiy katalizator bo'lib xizmat qiladi. Koinot darajasidagi tadqiqotlar aniq va tabiiy fanlar o'qitilishini tubdan yangilash, talabalarda murakkab ilmiy tizimlarni boshqarish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishni taqozo etadi.

Murojaatnomada belgilangan to'rtinchi ustuvor yo'nalishga ko'ra, professional ta'lim tizimidagi islohotlar, xususan, 100 ta texnikumning Germaniya, Janubiy Koreya va Shveysariya modellari asosida modernizatsiya qilinishi o'rta bo'g'in kadrlarining professional darajasini xalqaro standartlarga tenglashtiradi. Dual ta'lim tizimini joriy etgan korxonalarga 5 milliard so'mgacha imtiyozli kreditlar berilishi va ilk bor 100 ming nafar texnikum o'quvchisiga davlat stipendiyalari tayinlanishi ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzilishni bartaraf etadi.

Shu bilan birga, oliy ta'limda sifat nazoratini kuchaytirish maqsadida nufuzli xalqaro boshqaruv tizimlarining joriy etilishi, masalan, Jizzax politexnika institutining Vengriyaning Obuda universiteti boshqaruviga o'tkazilishi hamda Yaponiyaning Sukuba milliy universiteti bilan hamkorlikda yangi muassasa tashkil etilishi milliy OTMLar uchun xalqaro akademik sifat andozasi bo'lib xizmat qiladi. Har yili mehnat bozoriga kirib kelayotgan 300 ming oliy ma'lumotli yig'it-qiz uchun yaratilayotgan raqamli ekotizim talabalarining kognitiv salohiyati

va akademik yutuqlarini ish beruvchining real ehtiyojlari bilan bog'lovchi intellektual platforma bo'lib xizmat qiladi. Bu platforma ta'limning shaffofligi va natijadorligini ta'minlashda muhim instrument vazifasini o'taydi.

Sog'liqni saqlash tizimida ham xalqaro sifat nazorati o'rnatilishi, xususan, "Pearson" kompaniyasi bilan hamshiralari malakasini baholash tizimi yo'lga qo'yilishi tibbiy ta'lim nufuzini oshiradi. Tibbiyot sohasiga ajratilayotgan 3,5 trillion so'm mablag' va transplantologiya kabi murakkab yo'nalishlardagi yangi texnologiyalar faqat eng zamonaviy bilimlarga ega mutaxassislar qo'lida samarali vosita bo'la oladi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, yangi O'zbekistonning bosh yutug'i faqat iqtisodiy raqamlar emas, balki jamiyatimizda shakllangan yangicha talilliy tafakkur va rivojlanish madaniyatidir.

Ma'rifati jamiyatgina yuksak mas'uliyatni his eta oladi va rivojlanish madaniyatini o'z hayot tarzi darajasiga ko'taradi. Ta'lim tizimidagi barcha islohotlar — kelajakka yo'naltirilgan eng samarali sarmoya. Chunki zamonaviy bilim va yuqori texnologik ko'nikmalar bilan qurollangan inson Uchinchi Renessans poydevori bunyodkori va taraqqiyot drayveri bo'la oladi.

Murojaatnomada belgilangan kosmik loyihalar, sun'iy intellekt laboratoriyalari, "yashil" texnikumlar va yangi universitetlar mamlakatimizni jahonning eng rivojlangan davlatlari qatoriga olib chiqadigan intellektual poydevordir.



Shohruxbek QODIROV,
Farg'ona davlat universiteti
katta o'qituvchisi

Murojaatnomada bevosita ta'lim sohasi bilan bog'liq ko'plab tashabbuslar ilgari surilgan. Bu jamiyatimizda inson kapitalini rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylanganini ko'rsatadi. Shuningdek, oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan har bir professor-o'qituvchi, tadqiqotchi va ta'lim menejeri zimmasiga ulkan akademik va ma'naviy mas'uliyat yuqalaydi. Zero, 2026-yilda davlat boshqaruvi, sud-huquq tizimi, iqtisodiyot, ayniqsa, ta'lim, ilm-fan, tibbiyot, madaniyat

6

MEZON

MULOHAZA

Yoshligimda bir manbada o'qigan edim: buyuk shoir Alisher Navoiyning kitobga muhabbati go'daklik davrida, ilk ko'rgan kitob muqovasidagi tasvir orqali uyg'ongan ekan. Muqovada aks etgan "Narvondagi odamlar" manzarasi — oddiy illyustratsiya emas, balki yosh Alisherning estetik dunyoqarashi va tafakkuri shakllanishidagi ilk ilhom manbai bo'lgan.

2026-yil 21-yanvar, 13-son

YANGI O'ZBEKISTON

yuz.uz_news

yuz.uz_news

MILLIY KONTENT —

MA'NAVIY IMMUNITET KAFOLATI

O'sha holat bizga bir muhim haqiqatni ko'rsatadi: insonning ma'naviy va aqliy rivojlanishi ko'pincha ko'z bilan ko'rgan, qalb bilan his qilgan ilk taassurotlardan boshlanadi. Demak, insonning butun umriga yo'l ochib beruvchi ilk tasavvurlar go'dakligidan gavdalanadi va kelgusida bu shunchaki xotira emas, balki kelajagiga sochilgan ma'rifat shu'lasiga aylanadi. Bu kichik shu'la esa vaqt o'tishi bilan yanada porlab, inson ruhini nurga to'ldiradi. Ana shunday ilhom va ruhiy ta'sirning yorqin namunasi Alisher Navoiyning kitob muqovasidagi oddiy rasmdan ilhom olib, umrini ma'rifat va ijodga bag'ishlaganidir. Shuningdek, tarix guvoh, jahon adabiyotida o'z o'rnini topgan yozuvchilar, kashfiyotchilar va ilmiy taraqqiyot asoschilari uchun ham



bolalikda ko'rilgan bir manzara, eshitilgan bir hikoya turkibi bo'lgan.

Biroq bugungi kunda manzara o'zgargan. Avvalgi kabi kitob, jurnal, ertak va badiiy rasmlar bolalar ongidagi asosiy "ilhom manbai" emas. Ilgarigi avlodlar bobo va buvilar aytgan ertaklar orqali yaxshilik bilan yomonlikni ajratishni, adolat va mehr-oqibatni anglashni o'rgangan bo'lsa, endi bolalarning ilk ichki taassurotlari ko'pincha telefon ekranlaridan, tez almashuvchi videolar va virtual obrazlardan shakllanyapti.

Bunda eng xavfli, ekranda ko'rilgan har bir sun'iy obraz bola uchun haqiqat sifatida qabul qilinadi va uning ichki ma'naviy mezonlari shunga qarab shakllanadi. Shu bois, ekran bola uchun ilhom va ma'rifat narvoni bo'la oladimi yoki ma'naviy bo'shliq sari yetaklaydigan chuqur jarmi, bu avvalo, bizning tanlovimizda namoyon bo'ladi. Chunki telefon jonsiz bir matoh, unga "jon" bag'ishlaydigan, mazmun qo'shadigan o'zimiz. Agar biz milliy ruh, ezgu g'oya va chuqur ma'nolar bilan to'ldirilgan, sof ma'rifat va teran fikrga xizmat qiladigan media muhit

yaratmasak, bolalarimiz ma'no va maqsaddan uzoq, tashqi ko'rinishi yorqin, ammo ichki dunyosi bo'sh "virtual maneji" qurshovida ulg'ayishi mumkin.

Virtual soyada so'natotgan mehr

Inson qalbi va ongidagi eng sof, eng pokiza tuyg'ular, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlar, avvalo, oila bag'rida shakllanadi. Bolaning



ma'naviy qiyofasi, axloqiy mezonlari va dunyoqarashida oila muhiti eng birinchi ustoz vazifasini o'taydi. Oiladagi har bir mehri so'z, samimiy muomala, yaxshi odatlar bola qalbidagi ma'naviyatning ilk kurtaklarini uyg'otadi. Xalqimizning "Qush uyasi"da ko'rganini qiladi degan ma'noli maqoli ana shu azaliy haqiqatni yaqqol aks ettiradi. Ammo bugun oilalardagi qimmatli vaqtning katta qismi telefondagi virtual muloqot va tasvirlar namoyishi hisobiga "boyib", haqiqiy muloqotlar kamayib bormoqda.

Bugun smartfon va boshqa gadjetlar hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bo'lgan. Tom ma'noda, biz ularsiz yashay olmaydigan bo'lib qoldik, tunu kun ajralmas hamrohimizga

aylantirdik. Hozirgi kunda O'zbekistonda mobil aloqa bilan ta'minlangan abonentlar soni qariyb 36,3 millionni tashkil etmoqda. Bu shuni anglatadiki, bizda kattalarning deyarli har birida, o'smirlarning aksariyatida smartfon bor, hatto ayrim oilalarda bir kishiga ikkita dan qurilma to'g'ri keladi. Bu texnikaga bo'lgan "havas" tabiiy jarayon sifatida ko'rinishi mumkin, ammo aslida u ijtimoiy, ma'naviy va iqtisodiy hayotda tub o'zgarishlarga olib kelayotgan kuchli tendensiyadir.

To'g'ri, telefonning o'zi neytral vosita, lekin undagi ko'ngilochar manbalar, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar insoniyat munosabatlarining tabiiy oqimini o'zgartira boshladi. Ilgari

yaqinlik yuzma-yuz muloqotda, bir dasturxon atrofida samimiy suhbatda, ko'z ko'zga tushganidagi mehrda aks etardi. Endi esa o'sha yaqinlik telefon ekranidagi almashinayotgan xabarlar va virtual "do'stlar" suhbatlari sohasida so'nib borayotgandek. Oxirgi statistik raqamlar biz yashab turgan zamonning qanchalik raqamli hayot tarziga o'tib borayotganini ko'rsatadigan eng yorqin ko'zgudir. Bugun dunyo aholisining qariyb 70 foizi ijtimoiy tarmoqlarda faol ekani bu faqat axborot olish yoki ko'ngilochar kontent iste'moli emas, balki odamlar kundalik hayotining ajralmas qismiga aylanganini anglatadi.

Ijtimoiy tarmoqlar endi "bir qarang qo'yish" yoki "bo'sh vaqt o'tkazish" platformasi emas, balki shaxsiy munosabatlar, ish jarayonlari, savdo-sotiq, hatto siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsata oladigan kuchli ommaviy muhitga aylandi. Bugun yoshlarimiz aksariyati "virtual olam"ning begiyos labirintlarida kezib, u yerdan "yangi" axborotlar oqimini qabul qilmoqda. U yerda turli "sara xabar"lar, yangi trendlar, moda, hayotiy qarashlar bilan tanishadi. Bu bilan ular ijtimoiy tarmoqlardagi vaqtini o'qish, izlanish, yangi ko'nikmalar egallashga emas, asosan, miyani chalg'ituvchi, bir martalik huzur bag'ishlaydigan, ammo ma'naviy va amaliy foydasi yo'q kontentlar hazmiga sarflayapti.

Bunday "aqiliy xomashyo"lar vaqt o'tishi bilan fikrlash qobiliyatini pasaytiradi, chuqur tahlil qilish odatini yo'qotadi va insonning o'z hayotiga qo'ygan maqsadlarini ham xiralashtiradi. Bundan ham xavfli, tarmoqlarda avj olgan "laykomaniya", ya'ni layk va tomoshalar orqali o'z qadri baholash illati yoshlar ongini sekin-asta egallab bormoqda. Odamlar, ayniqsa, yoshlar voqea-hodisaning mohiyatini emas, balki qancha layk olishini o'ylaydigan bo'ldi. Shu yo'lda ular mantiqiy fikr va ma'naviy mezonlarni qurbon qilib, xavfli, axloqqa zid,

hatto hayot uchun xatarli harakatlarga qo'l urayotir. Virtual olamning bu tarzda "yulduzlik qiymati" esa haqiqiy hayotdagi qadriyatlarini sekin-asta yemirib, jamiyatda ma'naviy bo'shliq yaratish xavfini kuchaytirayotir.

O'zlikni anglatuvchi manba

Milliy ruhda kino, serial, klip, rolik va boshqa media mahsulotlar faqatgina ko'ngilochar vosita emas, balki yosh avlod tafakkuriga yo'nalish beradigan, ularning kimligini anglatadigan, milliy g'urur va o'zlikni uyg'otadigan ma'naviy ta'sir manbai hisoblanadi. Bir necha yil avval "Shabnam" filmidagi bosh qahramon qiz ekranda paydo bo'lganidan so'ng ko'p o'tmay, shahar ko'chalarida qirg'ok kilib soch yoygan, o'zini o'sha obrazga yaqinlashtirgan qizlar ko'paydi. Bu yoqimli holat birgina badiiy obraz orqali yoshlarga qanchalik tez va kuchli ta'sir o'tkazish mumkinligining yorqin isboti bo'ldi. Demak, agar biz milliy ruhda sahna asarlarini ko'paytirsak, ular orqali yoshlar qalbida milliy g'urur va o'zlikni anglash kabi maqsadlar chuqur ildiz otadi. Eng muhimi, bunday ta'sir quruq gap bilan emas, amali bilan yaratiladi.

Darhaqiqat, har bir yaratiladigan milliy kontent inson ongini yot g'oyalardan asraydigan qalqon. U nafaqat profilaktika, balki ma'naviy frontdagi kuchli qurol hamdir. Bu vazifa televideniye, blogosfera, raqamli media, teatr, kino, musiqa, kitob va san'atning har bir yo'nalishida amalga oshirilishi mumkin. Masalan, milliy kontent faqat tarixiy yodgorliklar oldida suratga tushish yoki milliy liboslardagi fotolavhalar aksi bilan chegaralanmasligi lozim. U bolalar multfilmilarida, qissalar va o'yinlarda, tarixiy seriallar, kinofilmlarda, internet tarmoqlaridagi chellengerlarda, musiqiy klip, teatr va san'at orqali aks etib, millatning tuyg'u va hissiyatini boyitishi kerak. Chunki bugun yoshlar uchun g'oyalar maydonida kurash kechmoqda. Kim o'z g'oyasini ta'sirchanroq yetkaza olsa, kelajak shu tomonda bo'ladi. Shuning uchun milliy kontentni faqat ma'rifiy emas, balki strategik resurs sifatida ko'rish vaqti keldi. U yoshlar ongidagi foydalanilmagan imkoniyatlar maydonini to'ldirishi, qalblariga mehr va iftixor olib kirishi, ona tilini, o'z tarixini, o'z xalqini sevishga undashi kerak.

Inson organizmi kabi jamiyat ham tashqi ta'sirlardan himoyalannish uchun ichki ma'naviy-mafkuraviy bardosh — ruhiy immunitetga muhtoj. U xalqning axloqiy qadriyatlariga, ma'naviy yetukligiga, vatanparvarlik ruhiga, tarixiy xotirasiga bog'liq holda shakllanadi. Hozirgi globallashuv, axborot xurujlari avj olgan sharoitda milliy kontentlar millatning ma'naviy qalqoni bo'la oladi.

Shuhrat NORMURODOV, jurnalist

SHOHIMARDON – YORDON: TURIZM

KARITASIDAGI ISTIQBOLLI MANZIL

Ilgari Farg'onaning sayyohlik imkoniyati haqida gap ketsa, barmoq bilan sanarli madaniy yodgorlik va turizm maskanlari tilga olinardi. Sayyohlar oqimi, mehmonxonalar soni ham shunga yarasha bo'lgan. Sayyohlik hududlarida yaxshi xizmat ko'rsatish tizimi, zarur infratuzilma yo'qligi qator noqulayliklarni keltirib chiqargani ham sir emas.

Keyingi yillardagi islohotlar Farg'ona turizm salohiyatini yangi bosqichga olib chiqdi. O'tgan yilning o'zida 3 ta mehmonxona, 8 ta xostel, 41 ta oilaviy mehmon uylari faoliyat boshlab, ular soni 400 dan oshdi. Ularda jami 3683 ta xona, 8324 ta o'rin joylar tashkil etildi. Bundan tashqari, 37 ta yangi turoperator faoliyati orqali bir yil davomida 544,2 ming xorijlik sayyoh viloyatga kelgan. Ko'rsatilgan xizmatlar asosida turizm eksporti 185,4 million dollarga yetkazildi. Shu bilan birga, 3 million 245 ming 400 nafar mahalliy aholi sayohat qilish maqsadida Farg'ona viloyatiga kelgan.

Shu tariqa turizm milliy iqtisodiyotimizning tayanch yo'nalishlaridan biriga aylandi. Kun sayin bu yo'nalishda istiqbolli dasturlar, loyihalar kengayib bormoqda. Tabiiyki, hududlarda turizm salmog'i yanada oshib, yangi imkoniyatlardan samarali va maqsadli foydalanish kengaymoqda.

— Prezidentimiz joriy yil 12-yanvar kuni "Farg'ona" turistik-rekreatsiya zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorni imzoladi. Ushbu hujjat viloyatimiz sayyohlik salohiyatini yangi bosqichga olib chiqishda o'ziga xos imkoniyat eshiklarini ochdi, — deydi Farg'ona viloyati hokimi o'rinbosari Xurshidbek Ahmedov.

— Unda turistik hududlarda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari qurish, istiqbolli investitsiya loyihalarni amalga oshirish borasidagi amaliy chora-tadbirlar belgilab berilgan.

Qarorga muvofiq, "Shohimardon — Yordon" umumjam'umiy xalqaro kurort zonalari, "Vodil" malina agroturizm klasteri, "Chimyon" sanatoriya kurort zonalari, "Avval" ko'ngilochar turizm majmualari tashkil etiladi. Shuningdek, 52 ta chora-tadbirlarni qamrab olgan turistik zonalarni rivojlantirish dasturi va qiymati 114,8 milliard so'm bo'lgan muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini barpo etish dasturi tasdiqlandi.

Purviqor tog'lar bag'rida joylashgan Shohimardon va Yordon qishlog'i o'ziga xos ohanarabosi, tarovati bilan ajralib turadi. So'lim tabiati, zilol suvi, musaffo havosi, to'rt tomoni tog'dan iborat mufakkur maskanlarini Oqsuv va Ko'ksuv soylari, mag'rur archazorlari dilga huzur bag'ishlaydi. Tanangiz rohatlanadi, ruhingiz yengil tortadi, toza havodan to'yib-to'yib nafas olasiz. Shu bois, ko'hna qishloq asrlar davomida sayohat, ziyorat maskani sifatida odamlarni o'ziga chorlab keladi.

— Oloy tog' tizmalariga tutashgan bu maskanda 11 mingdan ortiq aholi istiqomat

qiladi, — deydi "Shohimardon" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Nodirbek Hidoyatov. — Yangi yil quvonchli ishlar bilan boshlandi. Prezidentimizning alohida e'tibori sabab Shohimardon qishlog'i zamonaviy turizm maskaniga aylantiriladigan bo'ldi. Boshlangan xayri sa'y-harakatlar odamlar qalbiga quvonch, shukronalik tuyg'ularini olib kirdi. Bugun qishlog'imizda yuzdan ortiq dam olish maskanlari va xostellar bor. Davlatimiz rahbarining qarori bu boradagi ishlar salmog'ini yanada oshiradi. Chunki yangi infratuzilma tarmoqlari quriladi. Bu sayyohlar uchun qulay sharoit yaratadi. Dam olish uchun sayohatga chiqqan inson uchun qulaylik birinchi o'rindagi masala. Ayni kunlarda mahallamizda yangi-yangi turizm xizmatlarini yo'lga qo'yishga, ko'proq tillarni qamrab olgan tarjimonlar guruhini tashkil etib,

TARIX VA SAYYOH

yo'l boshlovchi kabi xizmatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor beryapmiz.

Bu yerda ko'plab ziyoratgohlar bor. Ularning eng mashhuri "Chakkitomar" hisoblanadi. Ko'plab sayyohlar tog'bag'ridan tomchilayotgan suvdan ko'proq ichishni istaydi. Aytishlaricha, shifobaxsh hisoblangan buloq suvi insonga ham ruhiy, ham jismoniy yengillik berar ekan.

Shohimardonda xorijlik investorlar tashabbusi bilan zamonaviy kanat yo'li, shisha yo'lak, turistik avtobuslar kabi qator infratuzilmalar yaratishni o'z ichiga olgan istiqbolli loyihalarni amalga oshirish reja qilingan. Bu loyiha hududni xalqaro darajadagi jozibador turistik maskanga aylantiradi. Mazkur rejalar dasturiga ko'ra, 2026-2029-yillarda qiymati 4,1 trillion so'm bo'lgan 48 ta manzilli

va istiqbolli investitsiya loyihasi amalga oshiriladi. Natijada 2,5 mingga qo'shimcha ish o'rni yaratiladi.

— Shohimardon va Yordon qishloqlari o'rtasida quriladigan osma ko'priklar aholi va sayyohlar uchun xizmat qiladi, — deydi Hojiakbar Tohirov. — Bunday zamonaviy infratuzilmalarni faqat rivojlangan mamlakatlarda uchratardik. Endi o'z qishloqlarimizda ham hayratomuz qurilishlar bo'y ko'rsatyapti. O'zim ingliz tilidan dar beraman. Sayyohlarning ko'proq kelishi qo'shimcha xizmat turlari, tarjimonlik, mehmon uylarini tashkil etish, do'konlar ochish kabi imkoniyatlarni beradi. Bu ko'plab insonlar uchun daromadli qo'shimcha ish degani.

Hazrat Ali maqbarasi 1826-yili Shohimardonda sodir bo'lgan kuchli zilzila oqibatida qattiq shikastlangan. Sobiq sho'rolar

davrida esa bu joy tuproq uyumlari bilan ko'mib tashlangan. Ziyoratchilarning kelishi taqiqlandi. Mustaqillik sharoitlari bilan muqaddas joy ulkan moddiy-ma'naviy meros sifatida olamga yana nur sochdi. Muhtasham maqbara qayta tiklanib, ziyoratchi va sayohatchilar uchun munosib shart-sharoitlar yaratildi.

Nafas yo'li va allergik kasalliklarni davolashga ixtisoslashgan 130 o'rinni viloyat pulmonologiya shifoxonasi ham aynan shu qishloqda joylashgan. Bu yerda bir yilda 4 mingga yaqin bemor davolanadi. Bugun nafaqat mahalliy aholi, balki qo'shni mamlakatlardan davolanish istagida kelayotganlar safi ortib bormoqda. Nafas yo'li va allergik kasalliklar tibbiyotining zamonaviy usullari bilan birga tabiiy yo'llar va fizioterapiya muolajalari yordamida davolanadi. Shifokorlar bemorlarga davolash muolajalari bilan birga archazorlar bag'rida musaffo havodan to'yib-to'yib nafas olishni tavsiya qiladi. Chunki archa daraxti o'zidan inson salomatligiga ijobiy ta'sir qiladigan va immunitetni oshiradigan efir moylari hamda shifobaxsh moddalarni tarqatadi.

Qarorda hudud aholisini kambag'allikdan chiqarish, bandligini ta'minlash, ijtimoiy himoya bilan bog'liq qator loyihalar ham ko'rsatib o'tilgan. Xususan, tomchilatib sug'orish tizimi yordamida malina plantatsiyalari tashkil qilinadi. Ishsiz va kambag'al oilalarga plantatsiya 15 sotixdan besh yil muddatga biznes-reja asosida bo'lib beriladi. Natijada 200 ga yaqin oila tadbirkorga aylanib, doimiy daromadga ega bo'ldi.

— Tumandagi Avval va Mozortagi mahallalari 4 kilometr masofaga kanalizatsiya tarmog'i tutiladi, — deydi Farg'ona viloyati turizm boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Muzaffar Temirov. — Bundan tashqari, Shohimardonsoy qirg'oq va o'zamlari mustahkamlanib, namunali sanitariya va gigiyena shoxobchalari joylashtirildi. Bu yangi xizmat ko'rsatish tarmoqlari va tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda o'ziga xos imkoniyatdir.

Rasuljon KAMOLOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-146.
32015 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida chop etildi.
Boshmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Qabulxona: (71) 233-56-33
Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98
E-mail: info@yuz.uz
Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05